



O'ZBEKISTONDAGI ISHSIZLIK: SABABLARI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRI



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Menejment fakulteti

Mnp-76/23 guruh

Tayorladi: Usmonov Behro'z Hasan o'g'li

usmonovbexruz7001@gmail.com

Telefon raqami. +99890-061-05-17

Ilmiy rahbar.

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Qo'shma ta'lim dasturlarini

muvofiglashtirish markazi boshlig'i - Innovatsion menejment kafedrasi dotsenti

Phd, g.ibragimov@tsue.uz

1. Anatatsiya

Biz ushbu maqola O'zbekistonda ishsizlik muammosining holati, sabablari, oqibatlari va uni kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan harakatlarni ko'rib chiqamiz. Aholining yosh tarkibi, demografik o'sish, mehnat migratsiyasi, rasmiy va norasmiy sektorlar, ta'lim va malaka yetishmasligi va hududiy tafovutlar kabi omillar ishsizlikning shakllantiradi. Ushbu maqolada so'nggi yillarda O'zbekistonning mehnat bozorida kuzatilgan o'zgarishlar, yoshlar ishsizligi, mavsumiy va yashirin ishsizlik, mehnat migratsiyasi hamda davlat tomonidan



amalga oshirilayotgan bandlik dasturlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va kelajak prognozlarini keltirib utamiz.

Kalit soʻzlar

Oʻzbekiston, ishsizlik, mehnat bozori, yoshlar bandligi, norasmiy sektor, mehnat migratsiyasi, bandlik dasturlari, iqtisodiy rivojlanish, hududiy tafovut.

Kirish

Oʻzbekiston hozirgi kunda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim bosqichida turgan davlatlardan biri boʻlib, mehnat bozoridagi holat mamlakatning farovonligi va barqarorligi uchun muhim koʻrsatkich hisoblanadi. Aholining 60 foizdan ortigʻi mehnatga layoqatli yoshda ekani shuningdek har yili yuz minglab yoshlar mehnat bozoriga kirib kelayotgani va iqtisodiy islohotlarning sekinligi ishsizlik muammosini yanada murakkablashtirmoqda. Pandemiya, global iqtisodiy beqarorlik va energetika narxlarining oʻzgarishi ham ish oʻrinlariga taʼsir koʻrsatib kelmoqda. Rasmiy statistika 2025-yilning 3-choragiga koʻra, ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etganini koʻrsatadi¹. Ammo biz bilamizki, yashirin ishsizlik va norasmiy sektorlar kengligi, mehnat migratsiyasi, yoshlar va ayollar oʻrtasidagi ishsizlik darajasi mavjudligi iqtisodiyotda hal etilishi lozim boʻlgan dolzarb masalalar sifatida qolmoqda.

Demografik omillar Oʻzbekiston mehnat bozoridagi asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Yoshlar ishsizligi rasmiy koʻrsatkichlardan ikki baravar yuqori boʻlib, har yili minglab bitiruvchilar ish bilan taʼminlanish imkoniyatini izlaydi. Taʼlim tizimi shuningdek mehnat bozoridagi talabning mos kelmasligi, amaliy koʻnikmalar yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalar bilan bogʻliq malaka yetishmovchiligi ishsizlikni kuchaytiradi. Masalan, IT, muhandislik va qishloq xoʻjaligi mexanizatsiyasi yoʻnalishlarida mutaxassislarimizning yetishmasligi, bunga qarama

¹ https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-ishsizlik-darazhasi-pasaydi-bandlik-vazirligi-126955?utm_source



qarshi tarzada esa iqtisodiyotda talab kam bo'lgan sohalarda bitiruvchilar ko'pligi kuzatilmoqda.

Hududlar buyicha tafovutlar ham muhim omil hisoblanadi. Toshkent shahri va viloyatida bandlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, Qoraqalpog'iston va cho'l hududlarida ishsizlik sezilarli darajada yuqori. Shuningdek qishloq hududlarida mavsumiy ishsizlik keng tarqalganligi, dehqonchilik davrida ish bilan taminlanganlik darajasi oshadi, lekin qish mavsumida ish o'rinlari cheklangan. Shuningdek, norasmiy sektor aholining 33 foizini tashkil qilib, bu esa vaqtinchalik va kafolatsiz bandlikni anglatadi². Mehnat migratsiyasi ichki mehnat bozorini yashiradi, ko'plab insonlar moddiy yetishmovchilik va ish o'rinlari cheklanganligi natejasida chet elga ketmoqda, bu esa mehnat bozorida qo'shimcha bosim yaratadi.

Asosiy qism

O'zbekistonda hozirgi kunda ishsizlik masalasi ko'p qirralidir shuningdek uning sabablari iqtisodiy, hududiy, ijtimoiy va texnologik omillar bilan chambarchas bog'langan. Birinchi o'rinda, demografik o'zgarishlar natejasida mehnat bozoridagi talab va taklifni shakllanadi. Aholimizning yosh tarkibi o'rtacha 28,5 yoshni tashkil etmoqda, ya'ni mehnatga layoqatli yoshlar ulushi yuqori. Har yili yurtimizda yuz minglab yoshlar oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tamomlab mehnat bozoriga kirib keladi. Ammo, yoshlar bandligi rasmiy statistikaga nisbatan sezilarli darajada past bo'ladi chunki ko'plari norasmiy sektorda yoki mavsumiy ishlarni bajaradi, bu natejasida esa yashirin ishsizlikni oshadi. 2025-yilning 3-choragiga ko'ra, O'zbekistonda umumiy ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etadi³. Ammo yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 9-10 foiz atrofida baholangan.

Iqtisodiy sabablarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ishsizlikning asosiy omillaridan biri iqtisodiyotning yetarlicha diversifikatsiyalashmaganligi shuningdek ma'lum sohalarda bo'yicha ish o'rinlarining yetishmasligidir. Misol qilib oladigan

² https://www.uzdaily.uz/en/unemployment-in-uzbekistan-fell-to-51-in-the-first-half-of-2025/?utm_source

³ https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ishtisizlik-darazhasi-pasaydi-bandlik-vazirligi-126955?utm_source



bo'lsak, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ish o'rinlari markaziy hududlarda jamlangan bo'lsa, qishloq va chekka hududlarda mehnat bozori markaziy hududlardik rivojlanmagan. Qishloq xo'jaligi aholining katta qismini band qilsa-da lekin bu sektorda ish haqining pastligi va mavsumiy ishlar ko'p, shuning uchun barqaror bandlikni ta'minlanmaydi. Shuningdik, xizmatlar sohasi turizm, chakana savdo, IT va moliya sektorlari yoshlar va malakali kadrlar uchun imkoniyatlarni yaratadi, ammo malaka va til yetishmovchiligi va zamonaviy texnologiyalarga moslashuv qobiliyatining pastligi bu imkoniyatlardan samarali foydalanishni imkoniyatlarini cheklaydi.

Texnologik omillar ham mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. So'nggi yillarda avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ayrim ish o'rinlarining kamaytirgan bo'lsada, yangi texnologiyalar bo'yicha malakali kadrlar talabini oshiradi. Misol uchun, IT va axborot texnologiyalari, elektron tijorat va onlayn xizmatlar sohalaridagi ish o'rinlari ko'paymoqda, ammo shunga qaramasdan bu sohalarda mutaxassislarning yetishmovchiligi mavjud. Buning natejasida esa, texnologik o'zgarishlar mehnat bozoridagi strukturaviy ishsizlikni kuchaytiradi: mavjud ishchilar eski malaka bilan yangi talabga javob bera olmaganligi va yosh bitiruvchilar esa yangi imkoniyatlardan cheklangan holda foydalanmoqda.

Biz bilamizki hududiy tafovutlarining O'zbekiston mehnat bozorida yana bir muhim masala hisoblanadi. Toshkent shahri va viloyat markazlarida bandlik darajasi yuqori bo'lsada lekin Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Buxoro kabi hududlarda ishsizlik sezilarli darajasi yuqori. Qishloq hududlarida mavsumiy ishsizlik keng tarqalgan: hosildorlik davrida bandlik oshadi ammo qish mavsumida esa ish o'rinlari cheklangan. Shuningdik, chekka hududlarda norasmiy sektorlar aholi uchun asosiy ish manbai bo'lib hisoblanadi. 2025-yil ma'lumotlariga qarasak, norasmiy sektorlar aholining 47 foizini tashkil etadi, bu esa barqaror bandlik hamda ijtimoiy kafolatlarni ta'minlamaydi. Norasmiy sektorning ishchilari ko'pincha mehnat shartnomasi, ijtimoiy himoya va pensiya ta'minoti bilan qamrab olinmaydi.



Ishsizlikning shuningdiki ijtimoiy oqibatlari ham muhimdir. Chunki bandlikning yetarlicha bo'lmashligi oilaviy daromadni kamaytiradi, buning natejasida esa iste'mol darajasini pasaytiradi hamda iqtisodiy faollikni cheklaydi. Shuningdek, uzoq muddatli ishsizlik psixologik stress, depressiya va ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasidagi ish bilan ta'minlanmaslik ularni emigratsiya buyicha yo'nalishlariga va hatto jinoyatchilikka olib kelishi mumkin. Agarda biz ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 2025-yilda 1,86 million kishi chet elda ishlashga ketgan, buning natejasida esa ichki mehnat resurslarini qisqartiradi va bazi hududlarda ishchi kuchi yetishmovchiligini yuzaga keltiradi⁴.

Shuningdiki ayollar bandligi ham dolzarb masala sifatida e'tiborga olinmoqda. Rasmiy statistikaga ma'lumotlarga ko'ra, ayollarning ishsizligi erkaklarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi, ayniqsa qishloq joylarida va kam rivojlangan tarmoqlarda bu farq ko'zga tashlanadi. Ayollar ishga kirish imkoniyatlari cheklanganligi shuningdiki oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq. Shuning uchun ham, ayollar bandligini oshirish, ularni malaka oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Mehnatning migratsiyasi ham ishsizlik masalalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab yoshlarimiz moddiy yetishmovchilik hamda ish o'rinlarining cheklanganligi sababli Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarga ishga ketadi. Bu o'z navbatida ichki mehnat bozorining qisqarishiga, qishloq va chekka hududlarda ishchi kuchi yetishmovchiligini tasir ko'rsatadi. Shuningdiki, migratsiya orqali olingan daromadlar oilaning byudjetini to'ldiradi, iste'mol va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, ammo buning natijasida esa mamlakatning ichki ish o'rinlarining rivojlantirishga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Rasmiy va norasmiy sektor o'rtasidagi farq O'zbekiston mehnat bozorining asosiy strukturaviy muammolaridandir. Rasmiy sektorda ishchilar bandlik kafolati, ijtimoiy himoya va barqaror ish haqi bilan ta'minlangan bo'lsa, norasmiy sektor

⁴ https://qalampir.uz/en/news/uzbekistonda-ishsizlik-darazhasi-pasaydi-bandlik-vazirligi-126955?utm_source



vaqtinchalik, kafolatsiz va past maoshli ishlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham davlat norasmiy sektor ishchilarini rasmiy sektor bilan integratsiyalashiga va ularning ijtimoiy himoya tizimiga kiritish bo'yicha strategiyalarini ishlab chiqmoqda.

Davlatimizning siyosati va bandlik dasturlari ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan eng muhim vositalardan biri bo'lib kelmoqda. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasining Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, yoshlarimizga ish bilan ta'minlash bo'yicha grantlar, kasb-hunar markazlari orqali malaka oshirish, mikrocreditlar orqali tadbirkorlikni rag'batlantirishimiz va shuningdik hududiy ish o'rinlari yaratish dasturlari. 2025-yil 3-chorak ma'lumotlariga ko'ra, rasmiy sektor bandlari 8,58 millionni, norasmiy sektor esa bu ko'rsatkich 4,38 millionni tashkil etadi. Bundan malum bo'ladiki, norasmiy sektorlar bilan bog'liq muammolar hali ham mavjud, lekin davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida esa rasmiy sektor bandligi oshib bormoqda.

Kelajak prognozlariga qaraydigan bo'lsak, O'zbekistoning mehnat bozorida ishsizlik darajasi sekin, lekin barqaror kamayish tendensiyasiga ega bo'lishi mumkin. Bandlikni oshirishda eng muhim omillar bular iqtisodiy diversifikatsiya, texnologik rivojlanish, malakali kadrlarni tayyorlash va hududiy bandlikni muvozanatlash. Natijada esa yoshlar va ayollar bandligini oshirish, migratsiya oqimlarini samarali boshqarish, norasmiy sektorlarmizni rasmiylashtirish va malakalarni oshirish dasturlari amalga oshirsak, ishsizlik darajasi sezilarli darajada kamayishi erishishimiz mumkin.

Xulosa

Yurtimizda ishsizlik muammosi ko'p qirralidir va uning ildizlari iqtisodiy, demografik, hududiy, ijtimoiy va texnologik omillardabilan bog'liq. Tadqiqot va rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil birinchi yarmida ishsizlik darajasi



5,1% bo‘lgan⁵. 2025-yilning 3-choragida umumiy ishsizlarning darajasi 4,9 foizni tashkil etadi⁶, ammo yoshlar va ayollar o‘rtasida ishsizlik nisbatan yuqoriroq bo‘lib shuningdik hududiy tafovutlar ham mavjud. Norasmiy sektorlarimiz aholining deyarli yarmi tomonidan bandlikni ta‘minlagan bo‘lsa-da, u barqaror va kafolatlangan ish joylarini yarata olmaydi, buning natijasida esa yashirin ishsizlikni darajasini oshiradi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi ichki mehnat resurslariga ta‘sir ko‘rsatadi, yoshlar va malakali ishchi kuchini chet elga yo‘naltiradi, va natijada oilaviy daromad hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga erishadi.

Iqtisodiy sabablarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, tarmoqlar bo‘yicha ish o‘rinlarining cheklanganligi, qishloq va chekka hududlarda ish o‘rinlari kamligi, xizmat ko‘rsatish va sanoat sektorlarining markazlashuvi strukturaviy ishsizlikni kuchaytirmoqda. Texnologik rivojlanish va avtomatlashtirish jarayoni ham eski malakaga ega ishchilarni mehnat bozoridan siqib chiqargan holatda yangi malakali ishchilarni talab qiladi. Shuning uchun ham, mehnat bozorini modernizatsiya qilish, kasbiy malakani oshirish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Davlatimizning siyosati ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozorini barqarorlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarga ish o‘rinlari yaratish, malaka oshirish markazlari, mikrocreditlar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish, hududiy ish o‘rinlarini yaratish ishsizlik darajasini kamaytirishda samarali choralar tadbirlari bo‘lib hisablanmoqda. Shuningdek, norasmiy sektor ishchilarini rasmiylashtirish va ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilish orqali barqaror bandlikni ta‘minlash mumkin.

Hududiy tafovutlarni kamaytirish orqali va chekka hududlarda ish o‘rinlarini yaratish ham muhim vazifalardan bo‘lib hisoblanadi. Toshkent shahri va viloyat

⁵ 2025-yil birinchi yarmida ishsizlik darajasi 5,1% bo‘lgan.

⁶ https://qalampir.uz/en/news/uzbekistonda-ishsizlik-darazhasi-pasaydi-bandlik-vazirligi-126955?utm_source



markazlaridagi bandlik darajasi yuqori bo'lsa-da, qishloq hududlarida sezilarli darajada ishsizlik mavjud. Shu bois ham hududiy iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma va ishlab chiqarish obyektlarini chekka hududlarga ko'chirish orqali ish o'rinlarini oshirishimiz mumkin.

Kelajakda ishsizlikni kamaytirishda quyidagi tavsiyalar muhimdir:

1. Yoshlar va ayollar bandligini oshirish va ularni malaka oshirish dasturlariga jalb qilish orqali malakali hodimlarni yetishtirib chiqarish.
2. Norasmiy sektor esa ishchilarini rasmiylashtirish va ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlash.
3. Texnologik rivojlanish va avtomatlashtirish jarayonlariga mos malaka tizimlarini yaratish.
4. Mehnat migratsiyasini tartibga solish va ichki ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirish.
5. Hududiy tafovutlarni imkon qadar kamaytirish va chekka hududlarda ish o'rinlarini ko'paytirish.
6. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik dasturlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatlarini davom ettirish.

Umuman olgandigan bo'lsak, O'zbekistonda mehnat bozorida ishsizlik darajasi sekin, ammo barqaror kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, davlat siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar orqali bu jarayon yanada samarali amalga oshirish mumkin. Bandlikni oshirish, yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlash, norasmiy sektorni rasmiylashtirish hamda malaka oshirish buyicha dasturlari amalga oshirilsak natijada esa ishsizlik darajasi sezilarli darajada kamayadi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Shu bilan birga, ishsizlik muammosi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va demografik jihatdan ham davlat siyosati markazida bo'lishi kerak.